

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AGRAR SOHANI MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Zilola Toshniyazova, Barno Toshpo'latova, Umida Turayeva  
TDIU SMMT-77 guruh talabalari*

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligini moliyalashtirish va kreditlash tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga mos holda takomillashtirilishi amaldagi fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarayotgan mahsuloti hajmining ortishi, sifatini yaxshilanishi asosida mahsulot raqobatbardoshligi ortadi. Fikrimizcha, respublikamizda agrar sohani moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish borasida ayrim muammolar mavjud. Ulardan asosiyлари, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini mineral o'g'itlar bilan ta'minlash tizimini ivestitsiyalash hajmi va sifatini oshirish muammosi.

Ma'lumki, mineral o'g'itlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini ta'minlashning zaruriy omili hisoblanadi. Lekin respublikamizda kaliyli va fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish ularga bo'lgan talabning atigi 3 foizini qondiradi. Shuning uchun mazkur o'g'it turlarini deyarli to'liq import qilayotirmiz. Bu esa, import hajmining oshishiga xizmat qilmoqda.

2. Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga berilgan lizing kreditlari samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi muammolarning mavjudligi.

Ushbu muammolar tarkibiga asosan ikki muammo kiradi. Birinchi muammoning mohiyati shundaki, tijorat banki lizing ob'ektini qabul qilib olish dalolatnomasi imzolangandan so'ng lizing kreditiga foiz hisoblashni boshlash huquqiga ega. Ammo, ayrim ma'sulitsiz sotuvchilar tufayli lizing ob'ektini etkazib berish kechiktirilmoqda. Buning natijasida tijorat banklari lizing kreditlarining daromadliligi pasaymoqda.

Ikkinchi muammoning mohiyati shundaki, ayrim fermer xo'jaliklari o'zlarining ishlab chiqarish – moliyaviy faoliyatini normal yo'lga qo'yishning uddasidan chiqmayaptilar. Natijada, ular lizing to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshira olmayaptilar. Bu esa, lizing kreditidan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Lizing asosida fermer xo'jaliklari faoliyatini moliyalashtirish lizing bitimida ishtirok etuvchi barcha tomonlarning manfaatlariga to'liq mos kelishi lozim. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lizing operatsiyasi lizing bitimida ishtirok etadigan uchala tomonning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarining oshishiga xizmat qilishi lozim:

– lizing kompaniyasi yoki lizing krediti bergen tijorat banki lizing to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq olishi lozim. Buning natijasida, birinchidan, ular uzoq muddat mobaynida barqaror foizli daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladilar; ikkinchidan,

lizing ob'ektiga hisoblangan amortizatsiya ajratmasini o'z vaqtida to'planishi tijorat bankiga yoki lizing kompaniyasiga yangi lizing ob'ektini sotib olish imkonini beradi;

– lizingga oluvchi fermer xo'jaligi o'z aylanma mablag'lari etishmasligi sharoitida investitsion xarajatlarini lizing krediti hisobiga moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

– lizing ob'ektini sotuvchi ishlab chiqargan mahsulotini to'la qiymatda sotish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqorida e'tirof etilgan iqtisodiy manfaatlar mushtarakligini ta'minlash uchun lizing kreditlaridan samarali foydalanish zaruriy shartga aylanadi. Agar lizing kreditini qaytarishda muammolar yuzaga kelsa, u holda lizing bitimida ishtirok etuvchi har uchala tomonning iqtisodiy manfaatlariga putur etadi. Ya'ni, birinchidan, lizing kreditining o'z vaqtida qaytmasligi tijorat bankining likvidliligiga va moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, lizing ob'ektini sotuvchining xo'jalik faoliyatiga ham salbiy ta'sir etadi. Chunki, tijorat banki lizing ob'ektini avvalgi hajmda sotib ololmaydi. Ikkinchidan, lizing kreditini o'z vaqtida qaytmasligi lizingga oluvchining moliyaviy holatiga jiddiy ziyon etkazadi.

3. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida jahon moliyaviy iqtisodiy-inqirozi munosabati bilan fermer xo'jaliklari pul oqimining zaiflashuvi kuzatilmogda. Buning asosiy sababi shundaki, fermer xo'jaliklari tomonidan sotilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida undirish kechikmoqda. Buning natijasida ular lizing to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmay qolmoqda. Oqibatda tijorat banklari va lizing kompaniyalari fermer xo'jaliklari faoliyatini lizing asosida moliyalashtirish operatsiyalarini risk darajasi yuqori bo'lgan operatsiyalar sifatida baholashmoqda.

4. Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarida asosiy kapitalga qilingan kreditlarning taqsimlanishida nomuvofiqliklarning mavjudligi.

5. Tijorat banklari va lizing kompaniyalarining fermer xo'jaliklariga beriladigan lizing kreditlari hajmini oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarning mavjudligi.

Ushbu muammolar majmuiga quyidagilar kiradi:

a) tijorat banklari depozit bazasining etarli emasligi.

b) tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarning etishmasligi muammosining mavjudligi.

Lizing kreditlari uzoq muddatli resurslarning mavjudligini talab etadi. Lekin, mamlakatimiz tijorat banklarida bir yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlarning jami depozitlardagi salmog'i 30 foizdan oshmaydi.

Mamlakatimiz banklarida mavjud bo'lgan uzoq muddatli resurslar taqchilligi muammosini hal qilishga ko'maklashish maqsadida 2009 yil 28 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1166 – sonli "Tijorat banklarining kredit loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni

rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining depozitlariga nisbatan o'rnatiladigan majburiy zaxira stavkalari depozitlarning muddatiga ko'ra quyidagi tartibda tabaqlashtirildi:

- bir yildan uch yilgacha muddatga jalb qilingan depozitlar bo'yicha amaldagi zaxira stavkasining 80 foizi miqdorda;
- uch yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlar bo'yicha amaldagi zaxira stavkasining 70 foizi miqdorida majburiy zaxira talabnomalari qo'llaniladi.

6. Lizing kompaniyalari resurs salohiyatining fermer xo'jaliklarining lizingga bo'lgan talabiga mos emasligi.

Lizing kompaniyalari hozirgi davrda lizing operatsiyalarining asosiy qismini o'zlarining kapital bazasi hisobidan moliyalashtirmoqdalar. Taraqqiy etgan mamlakatlarda lizing kompaniyalari moliyaviy resurslarining 70 foiziga qadar bo'lган qismi tijorat banklarining kreditlari hisobidan shakllantiriladi. Respublikamizda esa, lizing kompaniyalari tijorat banklari kreditlaridan mustaqil moliyalashtirish manbai sifatida foydalanmayotirlar. Bundan tashqari, lizing kompaniyalari fond bozori orqali resurslar jalb qilish usulidan ham foydalanmayaptilar.

Mamlakatimizda agrar sohani moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Azotli o'g'it ishlab chiqaruvchi korxonalarning texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish maqsadida ularga imtiyozli kreditlar va soliq imtiyozlari berishni joriy etish lozim; ikkinchidan azotli o'g'itlarni tovar fyucherslari orqali sotish yo'li bilan ular bahosining barqarorlik darajasini saqlab qolish lozim.

O'zbekiston Respublikasida katta miqdorda azotli o'g'itlar ishlab chiqariladi va uni Eron, Pokiston, Tojikiston, Afg'onistonga eksport qilamiz. Global iqtisodiy inqiroz natijasida azotli o'g'itlarga bo'lgan talab kamaydi. Bu esa, ularning jahon bahosining pasayishiga olib keldi.

2. Tijorat banklari tomonidan agrar soha korxonalariga berilgan investitsion kreditlarning ta'minoti sifatida ijara huquqidan foydalanish mexanizmini yaratish lozim.

Hozirga qadar respublikamizda ijara huquqidan investitsion kreditlarning ta'minoti sifatida foydalanish mexanizmi ishlab chiqilmagan. Buning natijasida fermer xo'jaliklari erga ijara huquqidan foydalanib investitsion kreditlar olish imkoniyatiga ega bo'lmayapdilar. Ayniqsa, paxta tolasining jahon bahosi pasayib ketgan hozirgi sharoitda ijara huquqidan ta'minot ob'ekti sifatida foydalanish agrar sohaga berilgan investitsion kreditlar hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini bergen bo'lar edi.

3. Fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarning xorijiy kreditlar va kreditlar bo'yicha to'lov yukining og'irlashib

ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida: birinchidan, milliy valyutaning devalvatsiya jarayonini to'xtatish lozim; ikkinchidan,

jalb etilayotgan xalqaro kreditlarning imkon qadar katta qismini belgilangan foiz stavkalarida olinishi ta'minlash lozim.

4. Fermer xo'jaliklarining pul oqimiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf etish maqsadida tabiiy monopoliyalar mahsulotlari va xizmatlari baholarining oqilona darajasini ta'minlash choralarini ko'rish lozim. 2008 yilda fermer xo'jaliklari xarajatlarining umumiyligi hajmida mineral o'g'it xarajatlarining salmog'i 22 foizga etdi. Bundan tashqari, yoqilg'i-moylash materiallari baholarining oshib borish jarayoni davom etmoqda.

5. Ma'lumki, agrar soxani moliyalashtirishda byudjet mablaglari asosiy moliyaviy resurs xisoblanadi. Byudjet mablaglarini Uzbekiston sharoitida tugri taksimlashda 2 xil ilmiy yondashuv tavsiya kilinadi:

1 – usul. Barcha sub'ektlar uchun ishlab chiqarish sharoitlariga boglik bulmagan xolda qishloq xujalik ekin maydonining xar gektariga bir xil yagona summada moliyalashtirish. Ushbu yondoshuv usuli barcha ishlab chiqaruvchilarni psixoligik va ijtimoiy jixatdan bir xil mavkeda ushlab turadi. Iktisodiy jixatdan yaxshi va tabiiy – iktisodiy sharoitlari konikarli aspektlar uchun bu ijobiy xolat xisoblansa, yomon ishlab chiqarish sharoitlariga ega bulganlar uchun salbiy xolatdir. Mazkur etishmovchilikni turgilash uchun ishlab chiqarishning eng yomon shart sharoitlarini kreditlashda asos kilib olish kerak.

2 – usulning asosida ishlab chiqarish sharoitlarining oksoklanib kolayotgan jixatlarini xisobga olib yondoshishi turadi. Bu usul qishloq xujalik sub'ektlari uchun afzal xisoblanadi. Chunki kushimcha xarajatlar bilan boglik muaamolarni bartaraf etish imkoniyati tugiladi.

Qishloq xo'jaligi dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida, shu jumladan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lganligi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish zaruriyatining mavjud ekanligi qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarini moliyalashtirish masalasini, shu jumladan banklar tomonidan kreditlash masalasi muammo sifatida yuzaga keladi. Ushbu muammoni hal qilishda asosan uch xil yondashuv mavjud:

1. Hukumat Davlat byudjetining mablag'lari yoki maxsus tashkil etilgan davlat jamg'armasining mablag'lari hisobidan tijorat banklari orqali qishloq xo'jalik korxonalarini kreditlashni ta'minlaydi.

Bunday yondashuvda tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida passiv rol o'ynaydilar va odatda kichik miqdordagi marja evaziga qishloq xo'jalik korxonalarini kreditlashni amalga oshiradilar.

2. Davlat tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jalik korxonalariga berilayotgan kreditlar bo'yicha yuzaga keladigan kredit riskini to'liq o'z zimmasiga oladi. Berilgan kredit o'z vaqtida qaytmagan holatda kreditning asosiy qarz summasi va unga hisoblangan foizlar bo'yicha yuzaga kelgan qarzdorlik summasi davlat tomonidan tijorat banklariga to'lab beriladi.

3. Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jalik korxonalariga nisbatan past foiz stavkalarida imtiyozli kreditlar beriladi. Imtiyozli kreditning foiz stavkasi bilan bank kreditlarining bozor stavkasi o'rtasidagi farq summasi davlat tomonidan tijorat banklariga to'lab beriladi.

Xalqaro bank amaliyotida qishloq xo'jaligini banklar tomonidan moliyalashtirishning qator usullari asosiy usullar sifatida keng qo'llaniladi. Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

1. Qishloq xo'jalik sub'ektlarini banklarning o'z mablag'lari evaziga kreditlash;
2. Bank kreditlari bo'yicha qisman kafolatlar taqdim qilish;
3. Qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilariga taqdim qilinayotgan kreditlarning foiz stavkasini subsidiyalash.

Kredit subsidiyalarining yana bir shakllaridan biri bu kreditning ma'lum qismini byudjetdan to'lab berish hisoblanadi. Ammo bir qator xorij mamlakatlari tajribasida byudjetdan subsidiya to'lovlarini amalga oshirishni qishloq xo'jaligi sohasini qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan maxsus fondlar tomonidan to'lovlarni amalga oshirish hisoblanadi.

4. Ixtisoslashgan qishloq xo'jalik muassasalarini tashkil etish.

Qishloq xo'jalik korxonalariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun taqdim qilinayotgan kreditlar quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

- Kredit berish muddati (kredit davri) qishloq xo'jaligi tsikli davomiyligiga mos keladi va bir yilga teng, bunda kredit kelishuvining boshlanishi keyingi qishloq xo'jaligi tsiklining boshlanishi bo'lib hisoblanadi.

- Kredit odatda revolverli (qayta tiklanuvchi) hisoblanadi, joriy yil kredit qaytarilishi bilan bank va qarz oluvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra keyingi yil qishloq xo'jaligi tsikli uchun kredit berish haqida qaror qilinadi, bunda foiz stavkasi o'zgartirilishi ham mumkin. Kreditning qayta tiklanishi holatini qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchisining aylanma mablag'larni ko'paytirish uchun har yili moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji bilan izohlash mumkin.

Kredit mablag'larini berish qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarish ehtiyojlariga ko'ra amalga oshirilsa kreditlash odatda ochiq kredit liniyalari shaklida amalga oshiriladi. Kreditlashning ushbu shakli ishlab chiqaruvchiga kredit bo'yicha foiz ajratmalarini to'lash summasini minimallashtirish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, kredit moliyalashtirish grafigi qarz oluvchining joriy xarajatlari

tarkibiga va hajmiga hamda ularning qishloq xo'jaligi sikl yili davomida taqsimotiga qarab belgilanadi.

### Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O 'quv qo 'llanma. T.: "Iqtisod-moliya, 2012
2. T. Malikov, N. Xaydarov. Davlat byudjeti - T.: " Iqtisod-moliya, 2007
3. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: дарслик. - Т.: Ношир, 2011
4. T.Malikov, N.Haydarov - Budjet daromadlari va xarajatlari. О 'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA, 2007
5. Т.С. Маликов, П.Т. Жалилов. Бюджет-солиқ сиёсати. - Тошкент: Академнашр, 2011
6. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent:"Iqtisod-moliya. 2009;556.
7. Т.Маликов, О.Олимжонов. Молиявий менежмент. - Т.: Академия, 1999
8. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўқув қўлланма. Тошкент,"Iqtisod-moliya, 2008
9. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
10. Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.". "Science and Education" Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
11. Ўроқов, У. "Фазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари.". (2017).
12. Ўроқов, У. "Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари.". (2017).
13. Urokov, Uchqun Yunusovich, and Zulayho Abdujobir Qizi Tursunova. "Actual issues in the management of external debt." Science and Education 3.12 (2022): 1023-1029.
14. Ўроқов У Ғайбуллаев О.Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press.-21 б, 2016
15. Ўроқов У. и др. Маҳаллий бюджетлар даромадларининг ўзига хос хусусиятлари манбанини оширишда инноватсіон менежментни ривожлантириш/Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 5-8.
16. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишни такомиллаштириш йўллари: И. ф. н. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. Автор.2020
17. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023. T4, №5, 1550-1564

18. Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари.“. Молия тизимини ривожлантиришнинг замонавий тенденсиялари ва истиқболлари”. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022йил, 27.
19. Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари.“. In Ҳудудларни ижтимоий-иктисодий ривожланишида молиянинг роли” мавзусидаги республика ўқув юртлараво конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари.«." (2017).
21. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи курсаткичлар.“." (2020).
22. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар.“." Ўзбекистоннинг халқаро молия тизимига интегратсиялашувни кучайтириш йўллари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция. ТМИ. 2020.
23. Уроков, У. "Махаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи курсаткичлар.“." Молия-кредит тизимининг иктисолиётнинг реал сектори билан узаро муносабатларини институционал ривожлантириш" мавзусидаги халкаро (2020).
24. Ўроқов У. Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси: моҳияти, аҳамияти ва афзаллликлари.“. Молия” журнали. 2014.
25. Ҳайдаров Н. Давлат молиясини бошкариш. Т.:«Академия. 2005.
26. Ҳайдаров Н Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма. 2007.
27. О G‘aybullayev, U O‘roqov.O ‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. О ‘quv qo‘llanma. - Т.: Baktriapress, 2016